

“TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O’RNI” MAVZUSIDA

Raximova Durdona Murot qizi
Shahrisabz shahar 22-DMTT tarbiyachisi

Biz uchun birinchi o’rinda bolalarimizning ma’naviyati, bilimi, sog’ligi. Shuning uchun davlat tomonidan maktabgacha ta’limga katta e’tibor berilyapti va bu hali boshlanishi. Sizlarning vazifangiz bolalarning ko’zidagi nurni ilg’ab olish, ularga yaxshi tarbiya berish.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Ma’lumki, bugun barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko’p yangilik kiritishga intilmoqda bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg’otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o’zi yangilikka boy bo’lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohalari ham faoliyat jarayonini yangilash va samarasini oshirish maqsadida kundan kunga yangilanib bormoqda. Natijada yangi tushunchalar hamda sohalar vujudga kelmoqda.

Xususan: «Innovatsiya» tushunchasi inglizcha so’zdan olingan bo’lib yangilik degan ma’noni anglatadi. Bu tushuncha bundan 100 yil avval maadaniyatshunoslik va lingvistikada madaniy diffuziya, ya’ni bir madaniyatning boshqa hududga tarqalishini asoslab berish jarayonida paydo bo’lgan.

Novatorlik va yangilik - madaniyat ta’lim va umummilliylikda jamiyat rivojlanishining ikki jihatidir. An’analar va yangiliklarning xilma xil munosabatiga tayanib pedagogik faoliyat jarayonini an’anaviy va zamonaviyga ajratib ko’rsatish mumkin. An’anaviy jamiyatda an’ana novatorlik ustidan xukmronlik qiladi. Zamonaviy jamiyatda esa, novatorlik qadryat hisoblanadi. Barcha pedagogik innovatsiyalarning asosiy maqsadi ta’lim samaradorligini oshirish hamda jahon talablariga to’laqonli javob beradigan malakali kadrlarni yetishtirib chiqarishdan iborat. Pedagogik faoliyat shunday jarayonlar bilan kechadigan holatki, bunda pedagogik yangilanish g’oyasi paydo bo’ladi. U sotsial holatga undan yangi ta’limdagi yangiliklarni tug’ilishi, paydo bo’lishiga olib keladi. Innovatsion jarayonning ba’zi yangiliklarini lokal tadqiqotlar o’tkazish va tajriba sinov o’tkazishdan farqlash kerak. Masalan maktablardagi qo’shimcha kurslarni innovatsiya deb bo’lmaydi. Shunday ekan biror g’oyani yangilik darajasida yaratib, faoliyat jarayoniga olib kirish va boshqarish hamda samaradorlik foizini yuqori dsarajaga ko’tarishni innovatsiya deyish mumkin. Bugungi kunda innovatsiyalarni juda katta qismi asosan kompyuter texnologiyalari orqali yaratilmoqda va keng ko’lamda ommaga taqdim etilmoqda. Yuqoridagi masalalar

bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy muammolardan biri bo'lgan innovatsion axborot texnologiyalari va uning eng asosiy jihatlari quydagi davlat hujjatida o'z aksini topgan.

Pedagog innovatsion faoliyatining tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan shartlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga – yangilik – maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Pedagogning innovatsion faoliyati - o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirishni belgilab beradi

V.A. Slastinining fikriga ko'ra innovatsion faoliyat tadqiqotlari pedagogning innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon beradi, hamda quydagilarda aks etadi.

1. Innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;
2. Ijodiy faoliyatga talab qilinishiga tayyorgarlik;
3. Shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
4. Innovatsion faoliyatni ijro etish texnologiyasiga tayyorgarlik darajasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni - 158 (11.09.2023) ga ko'ra quydagilarni amalga oshirish zarurligi belgilan berilgan.

- 2030 - yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari;
- Dalat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter jihozlari bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish;
- Maktabgacha ta'limga oid ilg'or tajribalar, bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan resurslar bankini yaratish;
- Maktabgacha ta'limga oid ilg'or tajribalar asosida ekspremental tajribalarni tashkil etish, bolalarning intellektual rivojlanishi, ta'lim-tarbiya sifatini va mustaqil faoliyat natijalarining monitoringini olib borish;
- Pedagogik faoliyatga innovatsiya va axborot texnologiyalarini joriy etish hamda sohani rivojlantirishning samaralarini maktabgacha ta'lim tizimiga joriy etishni yanada takomillashtirish maqsadida tarbiyachilar uchun mahorat darslarini, o'quv-amaliy seminarlarni tashkil etish

Innovatsiya va axborot texnologiyalarining joriy holati va mavjud muammolari albatta mavjud ulardan ba'zilarini quydagicha deb ko'rsatish mumkin.

Bugungi rivojlangan asrimizda aksariyat tarbiyachilarning ijtimoiy faoliyatda android mobillardan foydalanishi

Bolajonlar uchun yaratilgan intellektual rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy o'yinlarning mobil ilovalaridan foydalanish imkoniyatlar mavjud

Bugungi rivojlangan asrimizda aksariyat tarbiyachilarning ijtimoiy faoliyatda noutbuk va planshetlardan foydalanishi

Bolajonlar uchun yaratilgan intellektual rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy elektron va vertual o'yinlar, internet tizimidan foydalanish imkoniyatlar mavjud

Innovatsiya va axborot texnologiyalarining muammolarini yechimi sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz o'rinli bo'ladi.

- Oliy ma'lumotli kadrlar sonini ko'paytirish.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompyuter savodxonligini o'rgatish guruhini tashkil etish.
- Pedagog tarbiyachilarni IT markazlariga va maxsus o'quv kurslarga jalb qilish.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kompyuter jihozlari bilan to'liq ta'minlash uchun mablag' ajratish.
- Bir vaqtning o'zida barcha bolalar o'ynashg imkoniyatiga ega bo'lgan innovatsion g'oyalarni yaratish va ishlab chiqish.
- Innovatsion o'yinlarni ko'paytirish choralarini ko'rish.
- Kunning ikkinchi yarmidagi o'yin va faoliyatlar qismida bolalarga kompyuter saboqlarini berishimiz mumkin.
- Bolalarni faoliyati davomida o'z qiziqishlarini va bilimlarini oshirish uchun ko'rgazmalar yaratish.
- Kompyuterni imkoniyatlari haqida PowerPoint da bolalar rasm chizish orqali kompyuterni mukammalroq o'rganish;
- Dasturchi mutahassislar, tarbiyachi pedagoglar tomonidan metodik tavsiyalar yaratishni yo'lga qo'yish.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki innovatsion vsa axborot texnologiyalaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish va bu borada sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish hamda yakuniy nateja sifatida quyidagilarga erishishimiz mumkin:

- Bolajonlar uchun intellektual rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy, elektron va vertual o'yinlarni o'ynash, internet tizimidan foydalanish imkoniyatlarini beradi.
- Pedagoglarni ijtimoiy faoliyatda internet bilan bog'langanligi orqali pedagoglarning axborot texnologiyalarini o'rganishlari orqali ta'lim tarbiya jarayonida samaradorlikka erishiladi.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotida va shu tashkilotda ishlayotgan pedagoglarning jamiyatda ularning salohiyati oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova Mukarram Tursunaliyevna Pedagogik kompetentlik uslubiy qo'llanma -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet
2. Elmuratova D, Misirova N. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" O'quv qo'llanma "Guliston" 2021-yil 161 bet
3. M. H. Muslimov, N. A. Usmonboyev, D. M. Sayfurov, A. B. To'rayev "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" T.: 2015-yil 120-bet

4. Saidahmedov N. «Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar». – T.: O'zMU OPI, 2003. – 68 b.